



MINGBULOQ AREALI LEKSIKASINING BOSHQA SHEVALAR BILAN O'XSHASH VA FARQLI JIHATALARI

Qosimova Shahlo Ulug'bek qizi
*Davlat tilida ish yuritish asoslarini
o'qitish va malaka oshirish markazi
Namangan viloyati hududiy bo'linmasi
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada Mingbuloq tumani leksikasining o'ziga xos jihatlari va uning o'ziga xos ekanligini aks ettiruvchi misollar keltirilgan. Shuningdek, faqat shu tuman shevasiga xos bo'lgan so'zlar berilgan.

Kalit so'zlar: Dialektologiya, shevalarning fonetik, morfologik, sintaktik va xususiyatlari, lahja, mahalliy sheva.

Аннотация: В статье рассматриваются уникальные аспекты лексики района Мингбулок и есть примеры, отражающие его уникальность. Также приведены для диалекта этого района.

Ключевые слова: Дialektologiya, foneticheskaya morfologicheskaya sintaksicheskaya i xarakteristika dialektov, dialekt, mestnyy dialekt.

Abstract: The article presents specific aspects of the lexicon of the Mingbulak district and examples that reflect its uniqueness. Also, words specific to the dialect of this district are given.

Key words: Dialectology, phonetic, morphological, syntactic and features of dialect, dialect, local dialect

Dialektologiya fani tilshunoslikning bir sohasi bo'lib, u mahalliy sheva va lahjalarning o'ziga xos muhim xususiyatlari, ularning adabiy tildan va o'zaro bir-biridan farqlari, shevalarning adabiy tilga munosabati, adabiy tilni boyitishidagi ahamiyati, shevalarning tarmoq va guruhlari, ularning rivojlanish bosqichlari tarixi va shu kabi masalalarni o'rganadi. Dialektologiya grekcha dialektos so'zidan olingan bo'lib, biror tilning mavjud sheva va lahjalarini o'rgatadi. Dialekt – sheva, logos – ta'limot, ya'ni sheva haqida ta'limot demakdir. Dealektologiya fanining obykti mahalliy sheva va lahjar bo'lib, vazifalari quyidagilardan iborat:

- shevalarning fonetik, morfologik, sintaktik va xususiyatlarini har tomonlama tasnif qilish;





- milliy tilning shakllanishi va taraqqiyotida shevalarning tutgan o‘rnini va shu milliy tilga asos bo‘lgan shevalarni aniqlash;
 - shevalarning o‘zaro munosabatini va ularning adabiy tilga bo‘lgan munosabatini belgilash;
 - o‘xshash xususiyatlariga ko‘ra shevalarning tarqalish hududlarini aniqlash;
- Boshqa shevalarda shuningdek, Mingbuloq tumani hududida ham uchraydigan shevaga xos so‘zlar.***

Bunday so‘zlar qatoriga To‘raqo‘rg‘on tumani Yandama qishlog‘i hududida faol ishlatiluvchi Devona – ya‘ni shevada ***duvana / duvono***. Ushbu so‘zni Mingbuloq tumanining bir necha hududlarida qo‘llanilib kelinayotganini ko‘rish mumkin. Devona so‘zining izohli lug‘atdagi ma‘nosi forscha telba, aqlsiz, shuningdek, xayr - sadaqa bilan kun ko‘ruvchi gado degan ma‘nolarni anglatadi.

Chaqaloq – shevada ***buvak / jiji***. Ushbu so‘zni To‘raqo‘rg‘on tumanining Langarbobo qishlog‘i, Namangan tumani Qirg‘izqo‘rg‘on qishlog‘i hududida ham keng qo‘llanadi. Izohli lug‘atdagi asl ma‘nosi “Yangi tug‘ilgan bola” ma‘nosini anglatadi. Buvak so‘zi Mingbuloqning Uychi, Qayrog‘ochovul, Baynalminal hududida kenga qo‘llaniladi. Boja - izohli lug‘atdagi ma‘nosi opa-singillarning erlari. Shevada ***jesta***, Ushbu tarzda qo‘llanilishni Chortoq tumanining Alixon hududida uchratishimiz mumkin. Mingbuloq hududida esa, ham ***jesta***, ham ***jezna*** shakli qo‘llaniladi. Bojaning bu kabi ko‘rinishini Mingbuloqning bir necha hududlarida uchratish mumkin. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “jezna”ni shevaga xos so‘z tarzida ifodalangan. Jesta so‘zini bu lug‘atda uchratmaymiz.

Makkajo‘xori - izohli lug‘atda poyasi baland, doni so‘tasida bo‘ladigan g‘alla o‘simligi va uning doni. Shevada esa “makka”, “dumbul” shaklida ishlatiladi. Dumbul – forscha to‘liq pishmagan don, dukkak. Donli ekinlar, mevalarning ta‘mi kirib qolgan, lekin hali pishib yetilmagan holati. Shevada demak, pishib yetilgan makkaga nisbatan ham dumbul so‘zi ishlatiladi. Chortoq tumani hududida “so‘ta”, “tupchak” tarzida ishlatiladi. Tupchak so‘zini boshqa hududlarda uchratmaymiz. So‘ta-makkajo‘xorining donli yoki doni olingandan keyin qolgan o‘zagi, to‘pmevasi. Mingbuloq tumanida esa, makka ba‘zan dumbul tarzida qo‘llanadi. Shuningdek, oddiy aholining tilida “***makka-mardak***” holida ishlatiladi.





Mardak soʻzining izohli lugʻatdagi asl maʼnosi forscha kichkina odam, ahmoq goʻl, yengiltabiat, pastkash kishi. Demak, bu soʻz dumbul soʻzi bila oʻzaro sinimlik hosil qiladi deyish mumkin.

Ozgʻin – Izohli lugʻatda quydagicha taʼrif berilgan: eti qochgan, etdan tushgan, oriq, qotma, kamgoʻsht, chuvak. Shuningdek, kam qoʻllanadigan yoʻldan ozgan, aynigan, buzuq maʼnolari ham bor. Aynan, **“chuvak”** soʻzi Mingbuloq hududida arining kichik turiga nisbatan qoʻllaniladi. Yaʼni bunda oʻzaro “zaiflik” belgisiga koʻra bir-biriga yaqin deyish mumkin. Chuvak soʻzining izohli lugʻatdagi maʼnosi ozgʻinlikdan tashqari, yozgi yengil oyoq kiyim, shippak. Ozgʻin soʻzi Chust tumanining Olmos qishlogʻida, Chortoq tumanining Alixon va unga yaqin hududlarida “soʻkchak” tarzida ishlatiladi. Mingbuloq tumanining ayrim, hududlarida xususan, Qayrogʻochovul, Madyorovul, Mazgil qishloqlarida “chillashir «tarzida ishlatiladi. **Chillashir** – forscha chilla+sut: chilla davrida sut emayotgan yoki sut emizayotgan degan maʼnoni anglatadi. Shuningdek, toʻxtovsiz ich ketishi, kamqonlik, ozib ketish bilan kechadigan kasallik degan maʼnolari ham izohlangan. Demak, ozgʻin soʻziga oʻzaro aloqador deyish mumkin. **Soʻkchak** – ipak qurt boqish uchun qurilgan, odatda bir necha qavatli maxsus stellaj. Mingbuloq hududida ham huddi mana shunday maʼnoga nisbatan qoʻllaniladi. Bu borada shevalar orasidagi oʻzaro farqni koʻrish mumkin.

Mingbuloq tumani shevasigagina xos soʻzlar.

Tuman hududi va u yerlik aholining shevasini oʻrganish davomida albatta faqat shu hududgagina xos va shu hudud aholisi uchun tushunarli boʻlgan soʻzlarga roʻbaro kelishimiz tabiiy. Har bir hududning oʻziga xos leksik tizimi mavjud albatta. Bunday soʻzlarga misol sifatida **“voyim”** soʻzini aytishimiz mumkin. Bu soʻz siqilmoq, vahima qilmoq, gʻam chekmoq maʼnolarda keladi. Koʻproq **“voyim chekmoq”** tarzida ishlatiladi. Ushbu shevaga xos soʻzni Mingbuloq tumaning deyarli barcha hududlarida uchratish mumkin. Pishiqlamoq – Izohli lugʻatdagi asl maʼnosi quydagicha: Biror-bir ishni pishiq-puxta bajarish uchun yoʻl-yoʻriq koʻrsatmoq, toʻgʻirlamoq. Bu soʻz Mingbuloq tumanining Qayrogʻochovul hududida “shisha idishni bugʻlamoq” maʼnosida ishlatiladi va faqat shu hudud aholisi uchungina tushunarli. Shuningdek, bu kabi soʻzlarni deyarli keksa avlod vakillarining nutqida uchratish mumkin.

Piypiq – bu soʻzni izohli lugʻatda maʼnosi izohlanmagan soʻzlar qatoriga kiritishimiz mumkin. Shevada sekin harakat qiladigan, asosan, biror ishga nisbatan.





Andijon viloyati Ulug'nor hududida esa "omixta" tarzida qo'llaniladi. Omixta so'zining asl ma'nosi aralash, aralashdir. Bu so'z o'ylashimizcha, sekin harakat qiladigan odamga aloqador emas. Albatta, bunday qo'llanishga asos bo'lishi kerak.

Chinjoy - Mingbuloq tumani hududidagina foydalaniladigan shevaga xos so'zlardan biri. Uning ma'nosi ovqatni tanlab yeydigan inson. Asosan yosh bolalarga nisbatan qo'llaniladi. Boshqa hudud shevalarida bu so'z o'rnida "chimsa" qo'llaniladi. Bu so'zni ham kekxa avlod tilida uchratishimiz mumkin.

G'injoy - shevadagi ma'nosi "biror bir narsani so'rayverib bezor qilgan inson"ga nisbatan qo'llaniladi. Ko'chma ma'noda aytadigan bo'lsak, bir so'z bilan "egov". Ushbu so'zni ham Mingbuloq tumaning ayrim chekka qishloqlar aholisining so'zlashuv nutqida yaqqol ko'zga tashlanadi. Injiq insonlarga nisbatan Mingbuloq hududida "injamamat" so'zi keng qo'llaniladi. Bu so'zning kelib chiqishiga yuzlanadigan bo'lsak, Muhammad ismli inson injiqligi bilan ko'pchilikka va tumanning ko'p hududlariga "dong taratgan" ekan. Keyinchalik, shu inson nomidan olinib shevaga xos so'zga aylanib ketgan. Shundan beri kimdir qattiq qattiq qaysarlik qilsa, yoki injiqlik qilsa "injamamat" so'zi qo'shib aytilgan. Bu so'zni bevosita shevada qo'llaniladigan laqablardan biri deyish ham mumkin.

Ditrashday - shevada yupqa kiyingan odamga nisbatan qo'llaniladi. Bu so'zni ham Mingbuloq tumanining o'ziga xos shevaga oid so'zlaridan biri desak yanglishmagan bo'lamiz. O'ylashimizcha, ushbu so'zning kelib chiqishi «titramoq» dan kelib chiqqan. Qanday odam titraydi? Albatta, yupqa kiyingan odam. Bu so'z oddiy aholi nutqida doimiy takrorlanishi natijasida bir jarangsiz undosh o'rniga jaranglisi qo'llanilib qolgan. Chippang / chipatalang - shevadagi ma'nosi to'la. Asosan suvning to'lib oqishiga nisbatan ishlatiladi. Bu so'zni ham Mingbuloq tumanining aholisigagina tushunarli bo'lgan so'zlardan biri deyishimiz mumkin. Shuningdek, Mingbuloq tumaning o'zigagina xos bo'lgan so'zlarga quydagilarni misol qilib keltirish mumkin. Iturun - bu so'zning ma'nosi *olxo'ri*. Buning albatta, nima uchun bunaqa nom bilan nomlanishining sababi bor: ushbu meva shakl jihatdan itning burniga o'xshaganligi uchun. Ushbu hudud Yangiqo'rg'on va unga yaqin hududlarda "g'aynali" tarzida, Norin tumani hududida esa *so'poq* tarzida aytiladi.

Jozg'on - shevadagi ma'nosi bechora.

Yana shunday so'zlar sirasiga kirchimak / kirchimal - unchalik kiri bilinmaydigan matoga nisbatan ishlatiladi. Masalan, Ayam menga *kirchimak* /





kirchimal matodan ko'ylak tikib berdi. Bu so'zning asosan qishloq shevalarda ishlatilishiga sabab, qishloqlik ayollar ko'proq dala ishlari bilan band bo'lganligi uchun kirchimak matoda kiyim kiyishadi. Ya'ni kiri darrov bilinib qolmasligi uchun. Shuningdek, bu so'z ko'proq to'q rangli matolarga nisbatan ishlatiladi. **G'aynusqa** – g'alati shu so'zni ham Mingbuloq hududidan boshqa joyda deyarli uchratmaymiz. Mingbuloq tuman hududining ham ayrim qishloqlarida uchratishimiz mumkin xolos. Masalan, Anavi **g'aynusqa** menga gap gapirdi. Bundan tashqari, **g'aynusqa** o'rniga *bejo* so'zi ham ishlatiladi. **Bejo** so'zining asl ma'nosi forscha- uy-joysiz, behuda, o'rinsiz ma'nolarini anglatadi. Turkum sifatida ravish. Qisman izohli lug'atdagi ma'nosiga ham yaqin. *Bejo* gapirmoq bo'lsa, o'rinsiz gapirmoq qilib qo'llasa ham bo'ladi. *Saybog'ish*-chiroyli qilib degan ma'noda ishlatiladi. Bu so'zni ko'proq gapga nisbatan qo'llanadi. Masalan, *Gapingni saybog'ish* qilib gapir. *Saybog'ish* so'zini keksa avlod nutqida kuzatish mumkin. Ushbu so'zni Mingbuloqning *Qayrog'ochovul*, *Uychi*, *Gigant*, *Qo'g'aliko'l* qishloq vakillarida tilida keng iste'molda ishlatiladi.

Namit – xunuk ma'nosida ishlatiladi. Bu so'z ham ko'proq tashqi ko'rinishga nisbatan ishlatiladi. Masalan, *Namuncha namiting chiqib ketibdi*. *Itburun*- izohli lug'atdagi asl ma'nosi «Mayda qizil nordon mevali buta va uning mevasi»; na'matakning bir turi. Mingbuloq hududida olxo'ri mevasiga nisbatan ishlatiladi. Mingbuloq tumani aholisi sheva tilida o'ziga xos iboralarni ham uchratish mumkin. Masalan, *So'yib qo'ydi - ishni zo'r qilib qo'ydi* ma'nosida. Ushbu iborani keksa-yu yosh tilida ishlatiladi. *Tovub tonglab, jotib ovnagan odam – yomon norozi bo'lgan odam, ta'bi nozik odam*. Ushbu iborani ham keksa avlod tilida faol qo'llanishini ko'rish mumkin. Bu kabi iboralarni yana ko'plab uchratish mumkin.

Ovshoq, oqshoq, akshak – ushbu shevaga xos so'zning ma'nosi - guruchlarning sinig'i. *Hilol / klan / assalomu alaykum* – suvli hamda quruq yerlarda o'suvchi piyozidan ko'payuvchi o't.

Taqir - quruq joy. *Misr boy* - puli ko'p odamga nisbatan ishlatiladi.

Demov tirgak, arvak – ozg'in, *magnit* – mangit, *o'limsangi* – hech narsaga yaramaydigan, *nimjon*, *to'zim* – *sabr*, *yemirxo'r* – *yebirxo'r*, *damlikkina-charchamasdan*, *karsanday-katta*, *taypidik-oq surp*, *o'limtik*. *Damakuzur* – *hammani ustidan xo'jayin*, *o'tkir*, *shaqir-shuqur*- *ko'nglida kiri yo'q odam*. Aynan shu shevaga oid so'zni boshqa hududda “*shatir-shatur*” tarzida ishlatilganini guvohi bo'lish mumkin. *Do'zoli* – *bezori*, *g'orov*- *ko'k piyoz gullashiga yetganda mana shunday*



nomlanadi. Ba'zan *gazzob* deb ham ishlatiladi. Ushbu shevaga oid soʻzlarni boshqa hududlarda ishlatilmasligidan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilish mumkinki, Mingbuloq tumani shevasi ham oʻziga xos leksik tizimga ega. Shuningdek, tuman hududida urf-odat marosimlarning ham shevaga xos nomlanganini koʻrish mumkin. Masalan, birgina unashtirish marosimi turlicha nomlanadi: bosh boylar, oqliq bermoq, boʻlishtirib qoʻymoq, patir sindirar, ishonishib qoʻymoq kabi. Ushbu shevaga oid soʻzlarni deyarli barcha hududda ishlatilganini va barchasi uchun birday tushunarli ekani ham maʼlum. Bundan tashqari, toʻy-marosimining oʻzida ham shevag xos soʻzlar yaqqol koʻzga tashlanadi. Xususan, *mazar* – toʻydan bir kun oldin kuyov tarafga joʻnatiladigan ha r xil taomlar joylangan savatlar.

Yuk berdi / toʻy keldi – toʻydan oldin kelin tarafga joʻnatiladigan hayvon (qoʻy) va boshqa mahsulotlar olib kelishni shunday nomlashadi.

Idish qaytdi – kelin tarafdan bir nechta ayollar kuyovnikida mehmon boʻlib kelishi.

Chaqirdi – toʻydan 2- 3 kundan soʻng kelin ota uyiga mehmon boʻlib kelishi.

Baʼzi hududlarda “uch kunlik” deb ham nomlanadi.

Qizil toʻy – oq toʻyning aksi. Bunday marosim nomlari barcha sheva vakillari uchun bir xil deyish mumkin.

Mingbuloq hududida uchramaydigan shevaga xos soʻzlar (turli hududlar shevalari misolida)

Toʻraqoʻrgʻon tumani Yandama va Langarbobo qishlogʻi:

Ayil – qayish, oddoiy – daʼvat qilmoq, koʻra – otxona, qiyiq – otxona, yovsan-yovsin – dushman, zangi - qora, dastkalla – shopqi, galgi – ahmoq.

Ushbu shevaga xos soʻzlarni Mingbuloq hududida deyarli uchratmaymiz. Bu soʻzlarni oʻrnida adabiy tilga xos va mos boʻlgan soʻzlardan foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashurboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2013. – 86 b.
2. Ashurboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi. – T.: Navroʻz, 2016. 130 b.
3. Дарвишов И.Ў. Ареал тилшунослик: жануби-ғарбий Наманган шеваларинингфонетик-фонологик хусусиятлари. – Тошкент: Наврўз, 2019
4. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек шевалари ва уларнинг ҳақида умумий маълумот: Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1962. – 371 б.